

CAMBRIDGE XALQARO TA'LIM DASTURINING O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: AFZALLIK VA MUAMMOLAR TAHLILI

Xakimova Muxarramoy¹, Abdunazarov Ahliddin².

Namangan davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlar kafedrası magistranti¹,

Tabiiy fanlar kafedrası magistranti dotsenti².

Email: hakimov1094@yahoo.com;

Annotatsiya. Ushbu maqolada Cambridge xalqaro ta'lim dasturi, dastur bosqichlari va yo'nalishlari, Cambridge xalqaro ta'lim dasturini O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimida qo'llanilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Mavzuning dolzarbligi O'zbekiston ta'lim muassasalarida xalqaro o'qitish dasturlariga qiziqishning ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Tadqiqotning maqsadi - Cambridge xalqaro dasturining ijobiy jihatlarini ko'rsatish, ya'ni bu tizimni O'zbekiston maktablarida ta'lim jarayoniga tadbiq etilganda yuzaga keladigan afzallik va kamchiliklarni ochib berish.

Kalit so'zlar: Cambridge xalqaro ta'lim dasturi, Milliy ta'lim dasturi, integratsiya, Prezident maktablari, Cambridge tizimida qo'llaniladigan asosiy metodlar, tadqiqot asosida o'qitish, muammoli savol, loyiha asosida o'rganish, induvallashtirilgan o'qitish, fan mazmunini ingliz tili bilan birgalikda o'qitish, shakllantiruvchi baholash, tanqidiy-tahliliy fikrlash.

АНАЛИЗ ИНТЕГРАЦИИ КЕМБРИДЖСКОЙ МЕЖДУНАРОДНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПРОГРАММЫ В СИСТЕМУ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: ПРЕИМУЩЕСТВА И ПРОБЛЕМЫ

Хакимова Мухаррамой¹, Абдуназаров Ахлиддин².

Наманганский государственный педагогический институт

Магистрант кафедры естественных наук¹,

Доцент кафедры естественных наук²

Email: hakimov1094@yahoo.com;

Аннотация. В данной статье представлены сведения о Кембриджской международной образовательной программе, её этапах и направлениях, а также о применении Кембриджской международной образовательной программы в системе образования Республики Узбекистан. Актуальность темы объясняется растущим интересом образовательных учреждений Узбекистана к международным учебным программам. Цель исследования — показать положительные стороны Кембриджской международной программы,

то есть раскрыть преимущества и недостатки внедрения этой системы в учебный процесс школ Узбекистана.

Ключевые слова: Кембриджская международная образовательная программа, Национальная образовательная программа, интеграция, Президентские школы, основные методы, используемые в Кембриджской системе, исследовательское обучение, проблемное обучение, проектное обучение, индивидуализированное обучение, преподавание естественнонаучных дисциплин совместно с английским языком, формирующее оценивание, критическое и аналитическое мышление.

ANALYSIS OF THE INTEGRATION OF THE CAMBRIDGE INTERNATIONAL EDUCATION PROGRAMME INTO THE EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN: ADVANTAGES AND CHALLENGES

Khakimova Mukharramoy¹, Abdunazarov Akhliddin².

Namangan State Pedagogical Institute

Master's Student, Department of Natural Sciences¹,

Associate Professor, Department of Natural Sciences².

Email: hakimov1094@yahoo.com;

Annotation. *This article provides information about the Cambridge International Education Programme, its stages and directions, as well as the implementation of the Cambridge International Programme within the education system of the Republic of Uzbekistan. The relevance of the topic is explained by the growing interest of educational institutions in Uzbekistan in international teaching programmes. The purpose of the study is to highlight the positive aspects of the Cambridge International Programme, namely to reveal the advantages and disadvantages that may arise when this system is applied in the educational process of schools in Uzbekistan.*

Keywords: *Cambridge International Education Program, National Education Program, integration, Presidential Schools, main methods used in the Cambridge system, inquiry-based teaching, problem-based learning, project-based learning, individualized teaching, teaching science content together with English, formative assessment, critical and analytical thinking.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonida har bir rivojlanayotgan davlatlar o'zining ta'lim sohasidagi o'zgarish va o'sishlarni taqqoslash hamda ta'lim jarayoniga

integratsiya qilish davlatlararo ta'limdagi islohotlarni yaratishga imkoniyatlarni kengaytiradi.

Ushbu dolzarblikni inobatga olgan holda O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro o'qitish dasturlarini qo'llashning ahamiyati o'ziga xos bo'lib, bunda asosiy e'tibor Milliy dasturdan kelib chiqqan holda jahon standartlari darajasiga tenglashish muammosiga urg'u berilganligidir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019-yildagi PF-5712-son qaroriga ko'ra:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida bittadan Prezident maktablari tashkil etilishi qarori xalqaro ta'lim dasturlarini O'zbekistonga kirib kelishiga ilk qadam bo'ldi. [1].

O'zbekiston ta'limi sifatini oshirish va jahon ta'limi bilan integratsiyalashgan holda Xalqaro baholash dasturlarini o'quv jarayonida qo'llash davlat siyosati darajasidagi muhim muammo hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to'ldirish, integer — butun) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni, ikki va undan ortiq davlatlarning yo'nalishlar bo'yicha tegishli muammolarni sifatli va natijadorligini ta'minlagan holda hal qilishda o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish degan ma'noni bildiradi.

Xalqaro o'qitish tizimiga o'tishning ayni vaqtda dolzarbligi va har sohada rivojlanayotgan O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimining o'sishiga ta'sirini kuchaytirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kiritilgan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712- son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4306-son Qarorlari tasdiqlanib, ijroga yo'naltirilgan [2-4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI



1-rasm. Cambridge tizimida qo'llaniladigan asosiy metodlar.

Cambridge o'qitish sistemasida har bir fanni o'qitishda yuqoridagi rasmda keltirilgan o'qitish metodlaridan foydalanib darslar o'tiladi. Har bir metod o'quvchilarda ma'lum bir qobiliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan. Masalan, "Muammoli savol", "Loyiha asosida o'rganish" kabi metodlar o'quvchida kreativ fikrlash, tanqidiy-tahliliy fikrlash kabi qobiliyatlarni shakllantiradi [6]. Shuning uchun bugungi kunda xalqaro tajribalarni Milliy o'qitish tizimi bilan integrallashtirib, o'quvchi savodxonligini oshirishga oid topshiriqlar tizimini yaratish bo'yicha ilmiy -metodik ishlar olib borilmoqda. Ilg'or tajribaga ega o'qituvchilar tomonidan amaliyotda foydalanish uchun yuqoridagi kabi zamonaviy tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

AFZALLIK VA MUAMMOLAR TAHLILI

Cambridge o'qitish sistemasi hozirgi kunda dunyoning yetakchi 160 dan ortiq davlat ta'lim dasturlarida qo'llaniladi. Ushbu dastur asosida ta'lim va tarbiya

berilgan o'quvchilar har qanday sohada kreativ,tanqidiy-tahliliy fikrlaydigan,har qanday muammo va masalaga kreativ fikrlab yechim topishga harakat qiladi. [7] . Chunki bu dastur ana shunday jihatlarni rivojlantirishga asoslangan dasturdir.Bu ko'nikmalarga ega bo'lgan yoshlar dunyoning barcha rivojlanayotgan sohalarida talab qilinadi. Ushbu dasturni O'zbekistonda milliy dastur bilan integratsiya qilishda bir qancha muammolarga duch kelinishi mumkin.Xususan,ayrim mahalliy maktablarda laboratoriyalar o'tkazish uchun jihozlarning yetarli emasligi,o'qituvchi va o'quvchilarda ingliz tilidagi bilimlarni yetarli emasligi bu dasturdagi o'qitish usullarini qo'llashda to'sqinliklarni keltirib chiqaradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki,Cambridge ta'lim tizimini Milliy ta'lim dasturi bilan birlashtirish - O'zbekistonda ta'lim sifatini yanada oshirish hamda o'qituvchilarni yangi raqobatbardosh metodikalarga tayyorlash va ayniqsa o'quvchilarda tanqidiy -tahliliy fikrlash ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

To'g'ri yo'lga qo'yilgan integratsiya ta'lim mazmunini boyitadi, o'quvchilarni xalqaro darajadagi bilim va ko'nikmalarga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus,kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash tog'risida"gi 187-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari tog'risida"gi 997-sonli farmoni.
4. Altinok N., Diebolt C., Demeulemeester JL, Ta'lim bo'yicha yangi xalqaro ma'lumotlar bazasi.Sifat: 1965-2018, 2013, 14-noyabr.
5. Sjoberg S., PISA va Global ta'lim boshqaruvi-loyihaning tanqidi, undan foydalanish va Implications , Eurasia Journal of Mathematics, Science & Technology Education, 2015.
6. [https:// Ortus.co.in /blog/ Cambridge-curriculum-advantages-worldwide](https://Ortus.co.in/blog/Cambridge-curriculum-advantages-worldwide).
7. <https://cisedu.com/en-gb/academics/>.